



Ilyosbek BOZORBAYEV,

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, tayanch doktoranti

E-mail: ibozorbayev@mail.ru

F-m.f.d., professor Y.Ergashov taqrizi asosida

## CONTEXT APPROACH TO IMPROVING QUALIFICATIONS OF TEACHING STAFF

### Annotation

The article highlights the possibility of using contextual learning technology, in particular the “contextual learning” method for retraining and advanced training of teaching staff, in preparing the younger generation to adapt to modern rapidly changing conditions and innovative technologies. The main features of contextual learning technology and didactic requirements that contribute to its effective implementation are also described.

**Key words:** Education, competence, context, contextual learning technology, teaching models (semiotic, simulation, social), convergent and divergent thinking, didactic methods.

## КОНТЕКСТНЫЙ ПОДХОД В ПОВЫШЕНИИ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

### Аннотация

В статье освещается возможность использования технологии контекстного обучения, в частности метода «контекстного обучения» для переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров, в подготовке молодого поколения к адаптации к современным быстро меняющимся условиям и инновационным технологиям. Также описаны основные особенности технологии контекстного обучения и дидактические требования, способствующие ее эффективной реализации.

**Ключевые слова:** Образование, компетентность, контекст, технология контекстного обучения, модели обучения (семиотическая, имитационная, социальная), конвергентное и дивергентное мышление, дидактические методы.

## PEDAGOG KADRLARNI MALAKASINI OSHIRISHDA KONTEKSTLI YONDASHUV

### Annotatsiya

Maqolada yosh avlodni zamonaviy tez o'zgaruvchan sharoitlarga va innovatsion texnologiyalarga moslashishga tayyorlashda kontekstli o'qitish texnologiyasidan, xususan, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning “kontekstli o'qitish” usulidan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kontekstli o'qitish texnologiyasining asosiy xususiyatlari va uni samarali amalga oshirishga yordam beradigan didaktik talablar ham tavsiflanadi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lif, kompetensiya, kontekst, kontekstli o'qitish texnologiyasi, o'qitish modellari(semiotik, imitatsiya, ijtimoiy), konvergent va divergent fikrash, didaktik metodlar.

**Kirish.** O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyo ta'limali innovatsion o'qitish texnologiyalari jalal shakllana boshladi. Jumladan, muammoli o'qitish texnologiyasi M.A.Chashanov, V.Okon, I.Ya.Lerner, S.I.Brizgalova, A.M.Matyushkin, V.T.Kudryavtsev, M.I.Maxmutov, shaxsga yo'naltitilgan ta'lif texnologiyasi V.P. Bespalmo, rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyasi D.B.Elkonin, V.V. Davidov, L. V. Zankov, o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi V.F.Shatalov, o'qitishda loyiha metodi A.I.Savenkov, A.V.Leontovich, L.E.Osipenko, o'qitishda tadqiqot metodi A.I.Savenkov, A.V.Leontovich, A.S.Obuxov, N.G.Alekseyev, kontekstli o'qitish texnologiyasi A.A.Verbitskiy, O.G.Larionova kabi olimlar tomonidan o'r ganilgan. Albatta bu o'qitish texnologiyalarining ta'lif jarayonida qo'llanilishi ta'lif oluvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirishda muhim sanaladi.

Globallashuv sharoitida ta'lif oluvchilarni har tomonlame rivojlantirish, ularda kognitiv va kreativ sifatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda ta'lif jarayonini individuallashtirish, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlaydigan va unda ijodiy qobiliyatlarini ochib beradigan eng samarali o'qitish texnologiyalaridan biri bu – kontekstli o'qitish texnologiyasidir.

Kontekst (contextus) – lotinchcha so'z bo'lib, qo'shilish, utanish, bog'lanish kabi ma'nolari anglatadi [1]. Demak, har qanday konteksta aniq bir obyekt va uning atrofidagi hodisalar bilan qandaydir bog'langanlik bo'ladi. Kontekstli o'qitish texnologiyasida o'quv materiali hayotiy misollarga (yoki tegishli mutaxasislik yo'nalishi bo'yicha uning kasbiga) bog'lab o'qitishni nazarda tutiladi. Hozirgi davr ilmiy-technika taraqiyotining barcha bo'g'lnlari (transport, energetika, qurilish sanoat)ning rivojlanishida fizika fani o'mni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hol kontekst o'qitish texnologiyasi asosida fizika fanini

o'qitish imkoniyatini kengaytiradi. Muallif mazkur maqolada kontekstli o'qitish texnologiyasining ta'limgagi ahamiyati hamda undan fizika fanini o'qitishda qo'llashimi "Energiya" mavzusi misolida keltirildi.

**Kontekstli o'qitish metodologiyasi.** Kontekstli o'qitish texnologiyasi dastlab A.A.Verbitskiy va uning ilmiy maktabi tomonidan o'tgan asrning 90-yillardan boshlab o'r ganilgan. A.A.Verbitskiy kontekstli o'qitishda uchta (semiotik, imitatsiya, ijtimoiy) ta'lif modeli qatnashishini ta'kidlagan [2]. Ularning har birini izohini keltiramiz:

semiotik ta'lif modelida mavzuga oid ma'lumot axborot, jadval yoki grafik tarzida taqdirm qilinadi. Bu ma'lumot ta'lif oluvchi tomonidan mustaqil o'zlashtiriladi va yakuniy xulosasi so'zli (yoki yozma) bayon qilinadi;

imitatsiya ta'lif modelida mavzuiga oid ma'lumot nazariy axborot ko'rinishida taqdirm qilinadi. Ta'lif oluvchi tomonidan axborotning tahlil qilinishi va undan berilgan topshiriqqa mustaqil qaror qabul qilinishi kutiladi;

ijtimoiy ta'lif modelida mavzuga oid berilgan ma'lumotlarning amaliy ahamiyatini tushunishi nazarda tutiladi va uning bajarilishi quyidagi faoliyatlar orqali qabul qilinadi: referat shakhida, loyiha ishi, tadqiqot ishini bajarishi.

Semiotik, imitatsiya va ijtimoiy ta'lif modellarini birlashtirgan kontekst o'qitish texnologiyasining bosh maqsadi mutaxasisini kasbiy faoliyatiga amaliy jihatdan taylorlashni ta'minlashdan iborat.

A.A.Verbitskiyning g'oyasiga ko'ra talim oluvchilarning ta'lif olish faoliyati mazmunan uning kelgusi kasbiy faoliyatiga bilan uzviy bo'lgan muammoli vaziyatlar yug'indisidan iborat. Kontekstli o'qitish muammoli yondashuvga asoslanganligi bois, tinglovchi ta'lif jarayonida shunchaki ta'lif oluvchi sifatida turib qolmasdan, ba'lki uni izlanish (tadqiqot) faolligiga

yo'naltiradi. Bu faollik unga dastlab konvergent, o'qishning keyingi bosqichlarida talabada divergent fikrlashining rivojlanishini ta'minlaydi. Bu faollik muammoli vaziyatlarda dastlab tinlovchida konvergent, ta'limming keyingi bosqichlarida divergent fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. (Konvergent fikrlash mantiqan bir xil yo'nalishda bo'lib standart vaziyatlarda avval o'zlashtirilan algoritmlardan foydalaniadi. Divergent fikrlashda turli farazlar hamda muammoni yechishning original va nostonart yechimlari ilgari suriladi [4]).

Bugungi kunda ta'lim jarayonda turli xil pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda. Biroq ularning ta'lim jarayonida beradigan samarasi muhim hisoblanadi. I.P.Podslisy o'qitish jarayonning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi to'rt omilni ajaratib ko'rsatadi. Bular: o'quv materiali; tashkiliy – pedagogik ta'sir; o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi; vaqt [5, B.156-158]. A.A.Verbitskiy turli pedagogik texnologiyalar va ular asosida qurilgan ta'lim jarayonini tahlil qilib, ta'lim mazmunini ishlab chiqish uchun o'qituvchi tomonidan hisobga olish muhim bo'lgan besh omilni ta'kidlaydi. Bular:

ta'lim oluvchining yoshi va uning kognitiv faoliyatining psixologik xususiyatlari;

o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi individual metodik uslubi;

qo'llanadigan pedagogik texnologiyalarning xilma-xilligi; ilmiy tushuncha va bilimlarni o'zlashtirish qonuniyati (tabiiy-ilmiy, gumanitar va boshq.);

ushbu bilimlarni qo'llash mumkin bo'lgan kontekst rejasidagi ijtimoiy-madaniy yoki kasbiy faoliyat [3].

Hozirgi zamon talablariga ko'ra oliy ta'lim muassasalarda kompetentli soha mutaxassislarni taylorlashda kontekstli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur maqolaga metodologik asos qilib A.A.Verbitskiyning integrativ g'oyasi olingan.

Kontekstli o'qitish metodologiyasi, ya'ni kontekst asosida o'qitish, pedagog kadrlar tomonidan talabalarga mazmunan aniq, maqsadlar kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur metodologiya talabaning shaxsiy tajribasiga, ma'lumotni o'zlashtirish qobiliyatlariga, uning o'zgaruvchan real dunyo bilan obyektiv o'rganishini ta'minlashdir. Kontekstli o'qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

amaliy yondashuv: o'quv jarayonida nazariy bilimlar amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari, tajribalar orqali mustahkamlanadi.

interaktivlik: o'qitish jarayonida talabalarning faol ishtiroki ta'minlanadi. Bu maqsadda interaktiv usullar, jumladan, munozaralar, rolli o'yinlar, guruhli ishlash kabi metodlar qo'llaniladi.

individual yondashuv: har bir talabaning qobiliyatları va qiziqishlarini inobatga olib holda o'qitish usullari tanlanadi. Shu tariqa, talabalarning o'quv motivatsiyasi oshiriladi va ularning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi.

Kontekstli o'qitishni tashkil etish bosqichlarini keltiramiz:

dastlabki bosqich: o'qituvchi tomonidan talabalarning ehtiyojlari, qobiliyatları va qiziqishlari o'rganiladi. Shunga asosan o'quv dasturi va darsni olib borish xaritasi ishlab chiqiladi;

tayyorlov bosqichi: o'qitish uchun zarur bo'lgan materiallar, uskunalar va vositalar tayyorlanadi. Bu bosqichda o'qituvchi talabalarning amaliyotda qo'llash imkoniyatlari ega bo'lgan bilimlarni taqdim etadi;

asosiy bosqich: talabalar nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari, laboratoriya ishlari orqali

mustahkamlaydilar. Bu bosqichda talabalarning faol ishtiroki ta'minlanadi va o'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi;

nazorat va baholash bosqichi: talabalar tomonidan bajarilgan ishlar nazorat qilinadi va baholanadi. Bu bosqichda talabalarning bilim va ko'nikmalari tahlil qilinib, ularning rivojlanish darajasi aniqlanadi.

Har qanday o'qitish jarayoni uchun ma'lum ijtimoiy buyurtmaga ko'ra o'qitish rejasi tuziladi. Kontekstli o'qitishda o'quv rejasini tuzishda quyidagilar e'tiborga olinadi:

real hayotiy kontekstlar: o'quv materialni real hayotiy muammolar bilan bog'lash. Masalan, "Energiya" mavzusida talabalar real loyihalar(energiya manbalarini yaratish, turli usullarda energiyaning turli ko'rinishlarda olish, energiyani uzatish kabilalar) bilan ishlashi;

muammoli vaziyatlar: talabalarga muammoli vaziyatlarni yaratish hamda ularni muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun motiv berish. Muammoli vaziyatlar talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini hamda tabiiy – ilmiy savodxonlik rivojlantirishga impuls beradi;

integratsiyalashgan yondashuv: integratsiyalashgan o'qitish talabaga fanlararo bilimlarni yagona tizim sifatida qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

O'quv jarayonini amalga oshirishda turli o'qitish metodlari qo'llanilmoqda. Masalan:

loyiha metodi: talabalarga loyiha ustida ishlash vazifasi beriladi. Bunda loyihami amalga oshirish jarayonida talabalarning erishgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish jarayoni o'rganiladi;

amaliy mashg'ulotlar: o'quv jarayonida laboratoriya ishlari, namoyishli tajribalar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. Bunday mashg'ulotlar vositasida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlaydi hamda ularda eksperimental ko'nikmalar shakllanadi.

Baholash. Kontekstli o'qitishda baholash tizimi ham alohida ahamiyatga ega. Baholash jarayonida nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar ham hisobga olinishi kerak. Quyida baholash usullarini keltiramiz:

portfel baholash: talabaning o'quv yutuqlari va amaliy ishlari aks ettiruvchi portfel baholanadi. Kontekstli o'qitishda portfel baholash o'quv jarayonida talabalarni real holati tahlil qilinadi. Bu usulda nazariy bilimlar amaliyot bilan bog'lanadi, bu esa talabalarni o'z mahoratlarini amaliy vaziyatlarda qo'llashga o'rnatadi;

loyiha natijalari: talabalar tomonidan amalga oshirilgan loyiha ishlari natijalari va ularning himoyasi asosida baholash. Kontekstli o'qitishda loyiha natijalari asosida baholash ta'lim jarayonida talabalarning amaliy bilim va ko'nikmalarini baholashga qaratilgan. Bu usulda talabalarning loyihami ustida ishlash natijasi va jarayonidagi faoliyatini baholashadi.

muammoli vaziyatlarni hal qilish: talabalar muammoli vaziyatlarni qanday hal qilganliklari va bu jarayonda qanday ko'nikmalarini qo'llaganliklari baholanadi. Kontekstli o'qitishda muammoli vaziyatlarni hal qilish asosida baholash talabalarning amaliy ko'nikmalarini va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini baholashga qaratilgan.

**Xulosa.** Kontekstli o'qitishning afzallikkari amaliyotga yo'naltirilganlik, talaba nazariy bilimlarini real hayot sharoitida qo'llashni o'rgatish, talabada motivatsiyasini oshirish, interaktiv usullar orqali talabada o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, talabada kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdir.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. - 2-jild. www.ziyouz.cjm.kutubxonasi
2. Вербицкий А.А., Ларионова О.Г. Категория «контекст» в психологии и педагогике. – М: Изд-во Logos, 2009. – 336 с.
3. Вербицкий А.А. Педагогические технологии контекстного обучения: Научно-методическое пособие. – Москва. РИЦ МГГУ. 2010. – 55с.
4. Хугорской А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. – Москва. Изд-во МГУ. 2003. – 416 с.
5. Подласый И.П. Педагогика: 100 вопросов – 100 ответов. – М.: «Владос-пресс», 2006. – 365 с.